20«12»2022 yil. **3131-7-101-TB/2022-son**

# OLDI–SOTDI SHARTNOMASI №2322

"DIAMAND BUILDER" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT(keyingi oʻrinlarda "Sotuvchi" deb yuritiladi),oʻzining nizomi asosida ish yurituvchi HASANOV IBADULLA SHUKUROVICH nomidan, bir tomondan va Pastdargʻom TTB(keyingi oʻrinlarda "Sotib oluvchi" deb yuritiladi),oʻzining nizomi asosida ish yurituvchi D.B.Kamalova nomidan, ikkinchi tomondan mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

## 1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. "Sotuvchi" oʻziga tegishli boʻlgan tovar(mahsulot)ni ushbu spetsifikatsiyaga asosan "Sotib oluvchi"ga mulk qilib topshirish, "Sotib oluvchi" esa tovar(mahsulot)ni qabul qilish va ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda toʻlash majburiyatini oladi.

| № | Tovarlarning nomi | O'lchov birligi | Miqdori | Birlik uchun kontrakt narxi | QQS | Kontraktning umumiy qiymati (bitim summasi) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Pastdargom TTB xududiga videokamera tizimini urnatish xizmati | Tup | 1 | 63598956 | 8295516 | 63598956 |
| | JAMI | | | | | 63598956 |

## 2. TOʻLOV SHARTLARI

2.1. Ushbu Shartnomaning umumiy soʻmmasi 63598956 soʻmni tashkil etadi.
2.2. Sotib olinadigan Tovar (mahsulot) uchun oldindan toʻlov miqdori 30% ni tashkil qiladi.
2.3. Toʻlov shakli naqd pulsiz pul koʻchirish yoʻli bilan amalga oshiriladi.

## 3. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. "Sotuvchi"ning majburiyatlari:
3.1.1. Tovar (mahsulot)ni Shartnoma talablariga javob beradigan holatda "Sotib oluvchi"ga oʻz vaqtida topshirish.
3.1.2. Tovar (mahsulot)larning sifati ushbu guruxi uchun amaldagi standartlarga muvofik kelishi kerak.
3.1.3. "Sotuvchi" toʻplamda yaroksiz, sifati lozim darajada boʻlmagan tovarlar (mahsulot) mavjudligi haqida xabar olgan paytdan boshlab 3 kun ichida sifatsiz tovar (mahsulot)ni sifatlisiga almashtirish yoki ushbu Shartnomaning 1.2.-bandiga muvofiq sifati lozim darajada boʻlmagan tovarning pulini qaytarib beradi.
3.1.4. "Sotuvchi" Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tovar (mahsulot)ga boʻlgan kafolat muddatlarini taqdim etadi.
3.2. "Sotib oluvchi"ning majburiyatlari:
3.2.1. Qabul qilish dalolatnomasini rasmiylashtirgan holda ushbu Shartnoma va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatda tovarni miqdori, sifati va butlanishi boʻyicha qabul qilib oladi.
3.2.2. Sifati lozim darajada boʻlmagan tovar keltirilganligi aniqlangan taqdirda, ushbu tovarning sifati lozim darajada emasligi haqida dalolatnoma rasmiylashtirilgan paytdan boshlab 3 kun ichida "Sotuvchi"ni xabardor qiladi.
3.2.3. Shartnomada belgilangan miqdorda, tartibda va muddatda tovar haqini toʻlash

## 4. SHARTNOMAGA OʻZGARTIRISH VA QOʻSHIMCHALAR KIRITISH

4.1 Tomonlarning Shartnoma shartlariga kiritgan qo'shimcha va o'zgartirishlari uning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi, ular albatta inobatga olinishi zarur.
4.2. Shartnoma qonunchilik o'zgarganda, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida belgilab berilgan boshqa hollarda qayta tuzilishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

## 5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Tovarni topshirish muddatini buzganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga etkazilgan zararni to'liq qoplaydi va quyidagi miqdorda jarima to'laydi:
5.2. Tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, "Sotuvchi""Sotib oluvchi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.
5.3.Agar yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, "Sotib oluvchi" tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, "Sotuvchi" sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar (ishlar va xizmatlar) qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar (ishlar va xizmatlar) haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berganlik uchun jarima "Sotuvchi" akseptsiz tartibda undirib olinadi.
5.4. Etkazib berilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun "Sotib oluvchi""Sotuvchi"ga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.
5.5 Tovarlarni tanlab olmaslik, shuningdek "Sotuvchi" shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni yetkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun "Sotib oluvchi""Sotuvchi"ga tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa — 10 foiz miqdorida jarima to'laydi.
5.6. Neustoykani to'lash taraflarni Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.
5.7. Nazorat organlari tomonidan utkazilgan tekshirish davomida etkazib berilgan tovar mahsulotlar narxi yuqori deb topilgan taqdirda o'rtadagi farq tovar etkazib beruvchi tomonidan qoplanadi.

## 6. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

6.1. Mazkur Shartnoma 2022-yil «20» dekabrdan 2022-yil «31» dekabrgacha amal qiladi.
6.2 Mazkur Shartnoma ikki nusxada tuzilib, bir xil yuridik kuchga ega bo'lib hisoblanadi va tomonlarning har biri uchun bir nusxadan beriladi.
6.2. Shartnoma muddatidan oldin quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:
- tomonlarning kelishuviga muvofiq;
- O'z.R. qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda.
- Fors-Major holatlarida

## 7. NIZOLARNI HAL QILISH

7.1. Taraflar Shartnomada ko'rsatilgan majburiyat va shartlarni bajarmagan taqdirlarida O'z.R. Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining Shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni hamda boshqa qonun hujjatlari asosida javobgar bo'ladilar.
7.2. Taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar o'zaro kelishuv asosida, agar taraflar kelisha olmasalar nizolar O'z.R. "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining Shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunga va Fuqarolik kodeksiga asosan iqtisodiy sud tartibida hal qilinadi
7.3. Kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda barcha masalalar ikki tomonlama muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi, kelishish imkoni bo'lmaganda Iqtisodiy sudda hal qilinadi.

## 8.FORS – MAJOR

8.1. Taraflardan biri Shartnomaning yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulotda muayyan sharoitida oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (tabiiy ofatlar, noqulay ob-havo sharoiti, hukumat tadbirlari, hokimiyat organlarining qarorlari, harbiy nizolari, ichki tartib-buzarliklar va boshqa tabiiy ofatlar) fors-major tufayli bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi isbotlansa javobgar bo'lmaydi.
8.2. Mazkur Shartnoma bajarmagan yoki lozim darajada bajarilmasa tomonlar O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlari faoliyatining Shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risidagi" gi qonuni va O'zbekiston Respublikasining boshqa amaldagi qonunlari talablari bo'yicha javobgar bo'ladi.

## 9. BOSHQA SHARTLAR

9.1. Mazkur Shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda tuzilishi va xar ikkala taraflar orqali imzolanishi kerak.
9.2 Shartnomani taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilishi mumkin.
9.3 Mazkur 63598956 so'mlik, №2322-sonli Shartnoma 2 nusxada tuzilgan Shartnoma taraflar tomonidan imzolanib, Pastdarg'om tumani bo'yicha G'aznachilik bo'linmasida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

## 10. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

10.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlar sodir qilmaslikka kelishib oladilar.
10.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.
10.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdaagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.
10.4. Taraflar davlat xizmatchilari, siyosiy partiyalar, shuningdek o'zlarining ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda quyidagi harakatlarni bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orqali)sodir etilishiga yo'l qo'ymaydi:
a) nazorat qiluvchi organlardan litsenziya va ruxsatnomalar olish,soliq solish, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish, sudda ish ko'rilishi, qonunchilik jarayoni va boshqa

sohalarda qonunga xilof ravishda tijorat yoki boshqa tusdagi ustunlikka ega bo'lish yoki saqlab qolish maqsadida yuqoridagi shaxslar foydasiga yoki ular tomonidan moddiy yoki nomoddiy naf olishning taklif etilishi, va'da qilinishi, berilishiga; b) qonunga xilof ravishda olingan daromadlarning legallashtirilishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingan daromad ekanligi taraflarga ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish, yoxud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashliligini yashirishga; v) korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir qilish uchun ta'magirlik qilish, undash, tazyiq o'tkazish yoki tahdid qilish. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

10.5. Taraflar tovarlar, ishlar va xizmatlarni realizatsiya qilish va o'tkazishda bitimlar tuzish bo'yicha muzokaralar olib borishda, litsenziya, ruxsatnomalar va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega bo'lgan hujjatlarni olishda yoki ularning manfaatlarini ko'zlab boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi taraflarning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslarga (shu jumladan, yordamchi pudratchilar, agentlar, savdo vakillari, distribyutorlar, huquqshunoslar, hisobchilar, ular nomidan harakat qiluvchi boshqa vakillarlarga) nisbatan quyidaagi harakatlarni amalga oshirishlari shart:

- korrupsiyaviy harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmasligi va korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi shartligi haqida ko'rsatmalar va tushuntirishlar berish;
- ulardan korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik;
- ularni faqat taraflarning oddiy kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalb qilish;
- ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan haq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to'lovlarni amalga oshirmaslik.

10.6. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydilar.

10.7. Agar bir tarafga boshqa tarafning korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarning 10.4- va 10.5-bandlarida belgilangan majburiyatlarni buzilishiga yo'l qo'yilganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tarafdan oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab qilishi shart. Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

## 11. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

| «Ijrochi» | «Buyurtmachi» |
|---|---|
| "DIAMAND BUILDER" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT | **Pastdarg'om TTB** |
| (mol etkazib beruvchining nomi) | (byudjetdan mablag' oluvchining nomi) |
| Manzil: _Sam sh | Manzil: Pastdarg`om tumani |
| Tel./faks | Tel./faks __________ |
| h/v: 20208000305054308001 | sh/h 400322860182277073101054003 |
| Bank nomi – Самарканд ш. "ТРАСТБАНК" ХОАБ банкининг Самарканд филиали | byudjetdan mablag' oluvchi STIR 200765009, OKONX 85100 |
| MFO: 01097 STIR:306325753 | Pastdarg`omtumanibo`yichaG'aznachilik bulinmasi |
| OKONX | G'azna h/v 23402000301100001010 |
| | Bankning nomi Tosh.sh Markaziy bank |
| | KXKM MFO 00014 |
| | G'aznachilik bulinmasi STIR 201122919 |
| Rahbar: [illegible] (imzo) | Rahbar: **D.B.Kamalova** (imzo) |
| M.O'. | M.O'. |

| | |
|---|---|
| | Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang. |
| Imzolovchi F.I.SH. | DILFUZA KAMALOVA BAXRIYEVNA |
| Imzolangan sana | 20.12.2022 10:10 |
| Hujjat kodi | **XB5426408424** |
| Hulosa kodi | **BK6330773353** |

.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: BK6330773353

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

BK6330773353

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: **Qurilish oldi-sotdi shartnomasi.**

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: PASTDARG'OM TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI tomonidan 19.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Pastdarg'om tuman yuridik markazi bosh yuristkonsulti:**

**G.A.MUSURMANOVA**

19.12.2022

## Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 204652 на приобретение Самарканд вилояти Пастдаргом туман тиббиёт бирлашмаси худудига видеокузатув камера тизимини урнатиш

Способ проведения электронный

Дата 17.12.2022

Время рассмотрения 02.12.2022 18:52

Конкурсная комиссия Пастдаргом туман ТТБ марказлашган бухгалтерия, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | ALLAYAROV KOMIL SHAVKATOVICH | Врач | ТТБ |
| **Секретарь комиссии** | TOXIROV DAVRON KURBONOVICH | Бош провизор | ТТБ |
| **Член комиссии** | MUKIMOVA KOMILA GAPPAROVNA | Булим бошлиги | ТТБ |
| **Член комиссии** | SAATOVA XURSHIDA SAYDULLAYEVNA | Бош хамшира | ТТБ |
| **Член комиссии** | TURSUNOV G'AFUR SADINOVICH | Врач | ТТБ |
| **Член комиссии** | DJURAYEV XALIMJON NAPASOVICH | Врач | ТТБ |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 17.12.2022 года № лота 204652.
Метод оценки предложений – Бальный метод

Мин. балл: 10

Предмет закупки:

| | |
|---|---|
| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Услуги по монтажу и установке системы видеонаблюдения** |
| Подробное описание | Техник топширикда келтирилган |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | усл. ед |
| Цена товара (услуги) за единицу | 63 598 956.00 |
| Стартовая сумма | 63 598 956.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 общий оборотный капитал

Тип: Текстовое значение

Описание: общий оборотный капитал на сегодняшний день должен превышает 0,5 млрд сумов, гражданские правоспособности и полномочие на заключение договоров, а также подробная информация о предлагаемых услугах (цена, тип, размер и т.д.)

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ЧП AZIZ MUBINA | 10 | общий оборотный капитал | 9 | Экспертная | | |
| DIAMAND BUILDER MCHJ | 10 | общий оборотный капитал | 10 | Экспертная | | |

Критерий №2 трудовые ресурсы

Тип: Текстовое значение

Описание: трудовые ресурсы, наличие 7 и более квалифицированных рабочих и специалистов необходимые для выполнения работ (услуг)

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ЧП AZIZ MUBINA | 10 | трудовые ресурсы | 9 | Экспертная | | |
| DIAMAND BUILDER MCHJ | 10 | трудовые ресурсы | 10 | Экспертная | | |

Критерий №3 Сведения

Тип: Текстовое значение

Описание: Сведения об отсутствии в реестре недобросовестных участников, свидетельств ИНН, удостоверений ндс и т.п. также подробная информация о предлагаемых услугах (цена, тип, размер и т.д.)

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ЧП AZIZ MUBINA | 10 | Сведения об отсутствии в реестре | 9 | Экспертная | | |
| DIAMAND BUILDER MCHJ | 10 | Сведения об отсутствии в реестре недобросовестных участников | 10 | Экспертная | | |

Критерий №4 банковская гарантия

Тип: Текстовое значение

Описание: банковская гарантия выдачи оборотных средств или не менее 50% от стоимости предмета торгов, отсутствие задолженности перед налоговыми органами или банковская справка об отсутствии взысканий и различных задолженностей в обслуживающем банке. трудовые ресурсы, наличие 15 и более квалифицированных рабочих и специалистов необходимые для выполнения работ (услуг),

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ЧП AZIZ MUBINA | 10 | банковская гарантия | 9 | Экспертная | | |
| DIAMAND BUILDER MCHJ | 10 | банковская гарантия | 10 | Экспертная | | |

Критерий №5 наличие опыта работы

Тип: Текстовое значение

Описание: наличие опыта работы на объектах, аналогичных объекту отбора; За время своей деятельности работал не менее чем в 5 бюджетных организациях, в том числе в кооперации с Единым Заказчиком Инжиниринговой Компании; сведения об объеме работ, ранее выполненных своими силами; (копии счетов-фактур, процентов, актов и других подобных документов о выполненных работах)

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ЧП AZIZ MUBINA | 10 | счетов-фактур | 9 | Экспертная | | |
| DIAMAND BUILDER MCHJ | 10 | Бажарилган ишлар | 10 | Экспертная | | |

Финансовое значение

**Наименование товара: Услуги по монтажу и установке системы видеонаблюдения**

| Ценовые предложения | | | | Порядок оценки ценовых предложений | |
|---|---|---|---|---|---|
| Наименование участника | Стартовая сумма (UZS) | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Коэффициент, используемый для расчета предложений нерезидентов | Итоговое значение ( UZS) |
| **DIAMAND BUILDER MCHJ** | 63 598 956.00 | 63 598 956.00 UZS | 63 598 956.00 | 00.00 | 63 598 956.00 |
| **ЧП AZIZ MUBINA** | 63 598 956.00 | 63 598 956.00 UZS | 63 598 956.00 | 00.00 | 63 598 956.00 |

Оценка участников финансовой части составила:

Стартовая сумма составляет 63 598 956.00 UZS

| Наименование участника | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Применение преференции | Коэффициент, используемый для расчета предложений нерезидентов | Общее значение (UZS) | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **DIAMAND BUILDER MCHJ** | 63 598 956.00 UZS | 63 598 956.00 | 00.00 | 00.00 | 63 598 956.00 | 13.12.2022 11:46:38 | 20 |
| **ЧП AZIZ MUBINA** | 63 598 956.00 UZS | 63 598 956.00 | 00.00 | 00.00 | 63 598 956.00 | 13.12.2022 08:32:05 | 20 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| **DIAMAND BUILDER MCHJ** | 80 | 20 | 100 |
| **ЧП AZIZ MUBINA** | 72 | 20 | 92 |

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 204652 от 17.12.2022 года на приобретение Самарканд вилояти Пастдаргом туман тиббиёт бирлашмаси худудига видеокузатув камера тизимини урнатиш определила победителем:

DIAMAND BUILDER MCHJ
306325753

и резервный исполнитель: ЧП AZIZ MUBINA ( 305078849 )

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | ALLAYAROV KOMIL SHAVKATOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | MUKIMOVA KOMILA GAPPAROVNA | Согласен | |
| **Член комиссии** | SAATOVA XURSHIDA SAYDULLAYEVNA | Согласен | |
| **Член комиссии** | TURSUNOV G'AFUR SADINOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | DJURAYEV XALIMJON NAPASOVICH | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

1993117

Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

# GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"DIAMAND BUILDER" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"DIAMAND BUILDER" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

11.04.2019 710659 ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR): 306325753

| | |
|---|---|
| Tashkiliy-huquqiy shakli: | Mas'uliyati cheklangan jamiyat |
| Joylashgan joyi: | Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Beruniy ko'chasi 45 a uy, |
| Guvohnoma: | Samarqand viloyati, Samarqand shahri, DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI tomonidan berilgan |

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):

"ТАСДИКЛАЙМАН"
Пастдарғом туман тиббиёт бирлашмаси бошлиғи

_____________ Л.Кодирова

Пастдарғом туман тиббиёт бирлашмаси иш хизмат харид килиш буйича доимий ишловчи танлов (тендер) Комиссия йиғилиши.

БАЁНИ

2022 йил 20 декабр

Комиссия раиси. К.Аллаёров
Иштирок этдилар: Х,Соатова
Г.Турсунов
Х.Жураев
Д.Тохиров

КУН ТАРТИБИ:

Пастдаргом ТТБ худудига кузатув камераларини урнатиш хизматини бажариш учун 63598956 сўмга жойлаштирилган №22110012204652 сонли ЛОТ бўйича 17.12.2022 йилдаги танлов ўтказилган бўйича доимий ишловчи Комиссиясининг Пастдаргом ТТБ худудига кузатув камераларини урнатиш хизматини бажариш бўйича куйдаги MCHJ DIAMOND BUILDER ва CHP AZIZ MUBINA, корхоналар иштирок этган.

"Комиссия аъзолари томонидан Пастдаргом ТТБ худудига кузатув камераларини урнатиш хизматини бажариш га электрон порталга куйилган талаблар буйича корхонанинг имкониятлари ва устунлиги ва тендер совдоларида берилган талабларнинг авзаллиги хамда хозирги кунда Пастдарғом туманида фаолият кўрсатиб келаётганлиги, шароитлари бўйича ўтказилган тахлиллар натижасида MCHJ DIAMOND BUILDER имкониятлари кулайлигини кўрсатиб ўтилди ушбу лот буйича кушимча талабгорлар 2 (икки) иш кунида мухокамада турган вактда хеч кандай талабгорлар чикмаганлигини инобатга олиб махсус комиссия йиғилиши.

ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1. Пастдаргом ТТБ худудига кузатув камераларини урнатиш хизматини бажаришда:

- сифати ва шартномада келишилган муддатларда видеокузатув тизимини урнатиш хизматини сифатли бажаришга кафолати берилганлиги;

- корхонани таклиф этилган нархлари арзонлиги ва транспорт харажатларини ўз хисобидан бажарилиши иктисод килиш имконияти мавжудлиги туфайли MCHJ DIAMOND BUILDER га топширилсин.

2 MCHJ DIAMOND BUILDER дан ишлари хизмати бўйича Пастдарғом ТТБ ўртасида хўжалик шартномалари лойихалари 2 (икки) нусхада Ўзбекистон Республикасининг "Хўжалик юритувчи субьектлар фаолиятининг шартномавий-хукукий базаси тўғрисида"ги Қонунига мувофик тузиш белгилансин.

3 « MCHJ DIAMOND BUILDER ишлари хизмати бўйича Пастдарғом ТТБ ўртасида тузиладиган хўжалик шартномалари лойихалари юристлар экспертизасидан ўтказиш белгилансин.

4 « MCHJ DIAMOND BUILDER ишлари хизмати бўйича Пастдарғом ТТБ ўртасида икки томонлама тасдикланган ва жалб этиладиган адвокатлар ёки юристлар экпсертизасидан ўтказилган хўжалик шартномалари белгиланган тартибда тузилиб, икки томон рахбарлари томонидан тасдиклангандан сўнг Самарканд вилоят Пастдарғом тумани буйича Ғазначилик бўлинмаси рўйхатдан утказилсин.

Самарканд вилоят Пастдаргом тумани буйича Ғазначилик бўлинмасига 10 кун муддат ичда хўжалик шартномалари билан биргаликда, куйидагилар такдим этилсин:

- белгиланган тартибда расмийлаштирилган тўлов жадвали;

- мазкур комиссия йиғилиши баённома асли (кайтарилади) ва нусхаси;

- бюджет ташкилоти томонидан жалб этилган юрист хулосалари;

-Йўрикномаларда белгиланган бошка тегишли хужжатларни такдим килинсин.

а) белгиланган тартибда тасдикланган Нуксон далолатномаси;

б) белгиланган тартибда тасдикланган лойиха-смета хужжати (хўжалик субъектининг лойиха-смета хужжатини тузиш ва тасдиклаш хукукини берадиган тегишли лицензияси нусхаси);

5.Мазкур баённома ижроси назорати комиссия раисига юклатилсин.

Комиссия раиси. К.Аллаёров
Иштирок этдилар: Х,Соатова
Г.Турсунов
Х.Жураев
Д.Тохиров